**DOI**

***Namazova A.B.***
***Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani***
***Mirzacho‘l kasb – hunar maktabi***
***Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari***

# IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

***Annotatsiya***
*Ushbu maqolada kasb-hunar maktabida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bilan ishlashning normativ-huquqiy asoslari tahlil qilib berilgan bo‘lib, o‘quvchilarni ijtimoiy himoya mexanizmining innovatsion yo‘llari tahlil qilib beirlgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *Davlat, jamiyat, ijtimoiy himoya, tarqqiyot, YUNISEF, oila*

***Namazova A.B.***
***Mirzachulsky district, Jizzakh region***
***Mirzachul vocational school***
***Deputy director of Youth Affairs***

# LEGAL BASIS OF WORKING WITH STUDENTS IN NEED OF SOCIAL PROTECTION

**Annatation**
In this article, the normative and legal basis of working with the stratum in need of social protection in the vocational school is analyzed, and the innovative ways of the mechanism of social protection of students are analyzed.
**Key words:** State, society, social protection, development, UNICEF, family

Davlatmiz tomonidan jamiyatimizni rivojlantirish asnosida albatta aholining ichida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab quvvatlash davlat siyosatining eng asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Chunki aholini qo‘llab quvvatlash orqali ularning ichidagi yosh qatlamni davlat asrab avaylagan bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda “Taraqqiyot strategiyasi”ning ham bosh tamoyili ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab quvvtalashdan iboratdir.

Jahonning ko‘plab davlatlarida bugun aholini ijimoiy himoya qilish vazifalarini davlat to‘la to‘kis ado etishi lozim. Bu borada tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar demografik o‘sishni hisobga olgan holda aholining ishsiz, nochor va kambag‘al qatlamlari bilan doimiy ishlamoqda. Ularni qo‘llab quvvatlash borasida davlat o‘zning huquqiy normalari orqali davlat tomonidan katta mablag‘lar sarflanmoqda.



https://wordlyknowledge.uz

Xo‘sh bu borada O‘zbekiston tomonidan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qanday ishlar amalga oshirilmoqda. 2019 yil 21-22 noyabr kunlari Toshkentda “O‘zbekistonda bolalar va oilalar farovonligini ta’minlashda ijtimoiy ishni mustahkamlash” mavzusida forum bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, Respublika bolalarning Ijtimoiy moslashuvi markazi, “Sen yolg‘iz emassan” jamg‘armasi, “Oila” markazi, Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari, O‘zbekiston Milliy universiteti va UNICEF tomonidan tashkil etilgan ushbu tadbir BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 30 yilligiga bag‘ishlandi. Unda ijtimoiy sohaning turli jabhalarida ishlayotgan mutaxassislar, jumladan xalqaro va mahalliy ekspertlar, siyosatchilar, parlament a’zolari, davlat idoralari vakillari, tadqiqotchi va amaliyotchilar ishtirok etdilar.

Albatta davlatimiz ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab quvvatlash borasida ijtimoiy ishlarni samarali rejalashtirish va bu sohani rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu sohaga muntazam ravishda investitsiya kiritish va shu orqali himoyaga muhtoj oilalar farovonligini ta’minlash uchun barqaror yondashuvni qabul qilish uchun hukumatning tarqqiyot strategiyasiga hissa qo‘shishdan iboratdir. Shuningdek, tadbirda bolalarni himoya qilish bo‘yicha islohotlarni kuchaytirish uchun ijtimoiy xizmat xodimlarini o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash va samarali natijalarga erishishni ko‘rib chiqildi.

Jamiyatda oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan bolalarga xizmat ko‘rsatish borasidagi ishlar, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalar integratsiyasi hamda ijtimoiy va huquqiy xavf guruhlaridagi bolalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari muhokama qilinmoqda.

Bu borada YUNICEFning mintaqaviy vakolatxonasining bolalarni himoya qilish bo‘yicha maslahatchisi, Stela Grigorash: “Hatto muassasalar hukumatlar tomonidan yaxshi moliyalashtirilgan va kichik guruh bolalar uchun mo‘ljallangan mamlakatlarda ham ularning barchasi bolalar uchun zararli hisoblanadi. Shuning uchun biz ushbu yondashuvdan uzoqlashishimiz kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik bunday maxsus muassasalarda ko‘proq uchraydi,”-dedi. U bolalar oilaviy muhitda eng yaxshi rivojlanishini ta’kidladi.

Stela Grigorash, shuningdek, 2018 yilda Buxarestda bo‘lib o‘tgan konferensiyada 20 dan ortiq mamlakatlar tomonidan ma’qullangan Mintaqaviy harakatga chaqiriqni kelgusida amalga oshirishga da’vat etdi. Unda ijtimoiy xizmatlar sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish asosiy tamoyillari, shu jumladan ijtimoiy sohaning umumiy ta’riflariga rozilik bildirilgan, jumladan, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy xodimlarning vakolatlarini kengaytirish masalalari ham ko‘rilgan. “Biz ijtimoiy xizmatlarga ishchi kuchini qanday rejalashtirish, rivojlantirish va investitsiya qilishni o‘rganishimiz kerak. Ular bizga mahalliy miqyosda juda zarur. Davlat tomonidan ijtimoiy ishchilarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega,"- dedi u.



https://wordlyknowledge.uz

Davlatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda quydagilarga alohida e'tibor berilmoqda:

-yoshlar va bolalarni ijtimoiy ta'minoti va himoyasi muammosining nazariy asoslarini o'rganish;

-yoshlar va bolalarni bilan olib borilgan ijtimoiy ishning tahlilini amalda ko'rib chiqish;

-O'zbekiston Respublikasida bolalarga nisbatan davlat ijtimoiy siyosatining mohiyatini tahlil qilish. Oila va bolalarga nisbatan davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish;

-zo'ravonlikning oldini olish tizimini yordamga muhtoj bolalarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi omili sifatida asoslash, oila va bolalarning turli kategoriyalarini tasniflash;

-yordamga muxtoj yoshlar va bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish bo'yicha xorijda mavjud nazariyalarni ko'rib chiqish;

-ijtimoiy xodim faoliyatida yordamga muxtoj bolalar bilan ishlash jarayonida vujudga keladigan nazariy va amaliy qiyinchiliklar to'g'risida tushuncha berish eng asosiy yo'nalshilardan biri bo'lmog'i lozim;

-Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish va ulardan foydalana olish lozim.

Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash mamlakatimiz ijtimoiy himoya tizimining asosiy omili sifatida bolalar va yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifalarini O'zbekiston Respublikasida bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi davlat ijtimoiy siyosatining maqsadlari, asosiy yo'nalishlari va tamoyillari sifatida ko'rishimiz mumkin. Bolalar va yoshlar himoya qilish tizimining mohiyati va tarkibi, ob'ektlari va sub'ektlari, shakl va uslublarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar tizimini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qaytadan ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Chunki bolalar, o'quvchilar va 30 yoshgacha bo'lgan qatlamni ijtimoiy himoya qilishda davlat o'z manfaatlaridan kelib chiqib yondashgan. Aksincha rivojlangan davlatlarda bu masala jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib yondoshilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababdan davlat boshqaruv institutlari ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchi yoshlarni qo'llab quvvatlashdan oldin jamiyat va jamiyat a'zolari bilan hamfikr bo'lmog'i lozim. Bu borada davlat tomonida ishlab chiqilayotgan normalar va me'yorlar jahonning rivojlangan davlatlari va xalqaro tashkilotlari bo'yicha ekspertiza qilnmog'i maqsadga muvofiqdir. Bu birchidan. Ikkinchi masala ijtiimoiy himoyaga muhtoj yoshlar (bolalar, o'quvchilar va yoshlar) bilan ishlashda doimiy ravishda davlat moddiy qo'llab quvvatlashning zaxira timzimlarini ishga tushirmog'i lozim (Masalan Saudiya Aribistonida bola tug'ilsa unga bankda hisob raqam ochtirib davlat pul o'tkazadi). Uchinchi masala ta'lim muassasalari o'quvchilarni ichida ijtimoiy erkin bo'lmagan qatlam bilan doimiy (ota-onasi v.h) profilaktika ishlari olib



https://wordlyknowledge.uz

borish tizimini yaratish lozim bo‘ladi. Chunki ijtimoiy holati passiv bo‘lgan (noqobil oila, noqobil ota-ona) oialalarni davlat tomonidan nazorat qilish va qo‘llab quvvatlash mexanizmi shakllangan bo‘lmog‘i lozim. Ana shu masalalarni davlat o‘z vaqtida islohotlar bilan ketma-ket, bir-biriga bog‘lagan holda amalga oshirib borsa taraqqiyot tendensiyasi uchun o‘rinli bo‘lar edi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, bolalar va yoshlar imkoniyatlarini yanada intensivlashtirish uchun ularga turli xil madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish, ular uchun teng va erkin shart-sharoitlarni yaratib berish, ta’lim grandlari, ta’lim stependiyalari, ta’lim kontraktlari, davlat bonuslari va boshqa shu turdagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni amalga oshirib borilsa, shunda jamiyat barqarorlik sari intiladi, yoshlarda o‘z kuchiga va o‘z imkoniyatlariga ishonch hissi shakllanadi va ular bilan davlat o‘z taraqqiyotining oltin davrlarini amalga oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008-yil.

WORDLY
KNOWLEDGE



https://wordlyknowledge.uz